

ISSN: 2181-1040

DOI: 10.26739/2181-1040

tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 6
ISSUE 2**

2025

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 2

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 2



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор Мирзо Улуғбек
номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари доктори, доцент Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD фалсафа доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессор, филология фанлари доктори,
(Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Андижон давлат университети
фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доцент, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн—саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философских наук, доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философии (PhD), Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана, академик Академии художеств Узбекистана, доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Международной исламской академии Узбекистана, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры Славянских языков и литературы Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра, доктор исторических наук (США)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор Казахский национальный университет имени аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

профессор Андижанский государственный университет, кандидат философских наук. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганский государственный технический университет, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

профессор Навоийский государственный педагогический институт, доктор философских наук, (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

доцент Наманганского государственного университета, доктора философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD), по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

РЎЗИБОВЕ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophical Sciences, Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of Arts of Uzbekistan, Doctor of Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute, Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

International Islamic Academy of Uzbekistan, Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University, Doctor of Historical Sciences (USA)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University, Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Andijan State University, Doctor of Philosophical Sciences, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Docent of Namangan State University, Doctor of Philosophy (PhD) on Sociological Sciences (Uzbekistan)

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFOVICH

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МҲНДАРЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Aleksandr Naymark

MINGO‘RIK BITIKTOSHI: O‘RTA ASR TOSHKENTINING TANGRICHIKKA OID YODGORLIGIMI?.....7

2. Nazarova Shahnozaxon

MILLIY HURRIYAT SHE‘RIYATIDA AN‘ANAVIY TIMSOLLAR POETIKASI.....23

3. Yusupova Dildora

“ISLOM MODERNIZMI” VA “ISLOMNI MODERNIZATSIYA QILISH”
JARAYONLARINING FALSAFIY TAHLILI.....36

4. Hakimov Nazar

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA‘LIMI TARAQQIYOTIGA INNOVATSION
YONDASHUV.....44

5. Usarova Feruza

JADIDLAR G‘OYASINING YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI BILAN HAMOHANG
JIHATLARI.....52

6. Amirov Azamat

YANGI O‘ZBEKISTON TARIXIDA JADIDCHILIK TALIMOTINI RAQAMLASHTIRISH
MASALALARI.....60

7. Филиппов Ольгерд

ЦИФРОВОЙ ГУМАНИЗМ КАК ПАРАДИГМА ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ ЦИФРОВОЙ
ТРАНСФОРМАЦИИ.....66

8. Ashrapov Ravil

READING CULTURE IN MODERN LIFE OF UZBEKISTAN.....79

9. Muminkhujayev Abrorkhuja

INTEGRATING INSTRUCTIONAL TECHNOLOGY AND AI TO ENHANCE WRITING AND
SPEAKING SKILLS OF DIGITAL RESIDENTS IN SPECIALIZED SCHOOLS.....87

ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ****JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE****Aleksandr Naymark**

Xofstra universiteti

Tasviriy san'at, dizayn va san'at tarixi kafedrası professori

E-mail: aleksandr.naymark@hofstra.edu

Maqolani nashrga tayyorlovchi:

Madayeva Shahnoza Omunullayevna

falsafa fanlari doktori, professor.

**MINGO'RIK BITIKTOSHI: O'RTA ASR TOSHKENTINING TANGRICHILIKKA
OID YODGORLIGIMI?** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17418739>**ANNOTATSIYA**

Toshkentdagi Mingo'rik manzilgohi yaqinidan topilgan turli belgilar tasvirlangan kichik tosh lavha eramizning dastlabki asrlariga oid ko'chmanchi madaniyat yodgorligi sifatida e'lon qilingan edi. Ushbu maqolada esa mutlaqo boshqa talqin taklif etiladi. Unga ko'ra, Mingo'rik bitiktoshi - stela tasvirida olamning vertikal kesimi ifodalangan bo'lib, markazdagi *axis mundi* (olam o'qi) atrofida turli tirik mavjudotlar o'z yashash muhitlarida tasvirlangan. Mazkur o'q suvdan o'sib chiqib, yer yuzidan o'tadi, osmon sohalariga yetadi va quyosh hamda oy stansiyalari tasvirlari bilan yakunlanadi. Kompozitsiyaning markaziga joylashtirilgan to'rtburchak ramka ichida tamg'a shaklida stilizatsiya qilingan, taxtda o'tirgan yirik antropomorf qiyofa aks ettirilgan. Tasvirning uslubiy xususiyatlariga asoslanib, bitiktoshni mo'g'ullar istilosi davriga oid deb hisoblash va uni Markaziy Osiyoda tangrichilik kultining mavjudligidan dalolat beruvchi yagona moddiy yodgorlik sifatida e'tirof etish mumkin.

Kalit so'zlar: Toshkent, Mingo'rik, Chig'atoy ulusi, bitiktosh, gilamlar, zoomorf tasvirlar, mo'g'ullar, tangrichilik, Chingizxon, axis mundi.

Aleksandr Naymark

Hofstra University

Professor Department of Fine Arts, Design, and Art History

E-mail: aleksandr.naymark@hofstra.edu

The article was prepared for publication by:

Madaeva Shakhnoza Amanullaevna

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor

**STELE FROM MING-URYUK:
A TENGRIAN SANCTUARY IN MEDIEVAL TASHKENT?****ABSTRACT**

A small stone slab with various signs, found near the settlement of Minguryuk in Tashkent, was published as a monument of nomadic culture of the first centuries A.D. The article offers a completely different interpretation, according to which the image on the Minguryuk stele represents a vertical

section of the universe, where different categories of living beings are shown in their habitats on the sides of the central axis mundi. The latter grows out of the water, passes through the terrestrial world, reaches the celestial spheres and is crowned with images of the sun and stations of the moon. In a rectangular frame placed in the center of the composition there is a large anthropomorphic figure stylized as a tamga, sitting on a throne. Based on the stylistic features of the image, the stele can be dated to the era of the Mongol conquest and can be considered the only material evidence of the existence of the Tengrian cult in Central Asia.

Keywords: Tashkent, Minguryuk, Chagatai ulus, stele, carpets, zoomorphic images, Mongols, Tengrism, Genghis Khan, axis mundi.

Александр Наймарк

Университет Хофстра

Профессор кафедры изобразительного искусства,
дизайна и истории искусства

E-mail: aleksandr.naymark@hofstra.edu

Статью подготовил для публикации

Мадаева Шахноза Амануллаевна

доктор философских наук, профессор.

МИНГУРЮКСКАЯ СТЕЛА: СВИДЕТЕЛЬСТВО ТЕНГРИАНСТВА В СРЕДНЕВЕКОВОМ ТАШКЕНТЕ?

АННОТАЦИЯ

Небольшая каменная плита с разнообразными знаками, найденная вблизи городища Мингурюк в Ташкенте, была опубликована в качестве памятника кочевой культуры первых веков н.э. В статье предлагается совершенно иная интерпретация, согласно которой изображение на Мингурюкской стеле представляет вертикальный срез мироздания, где разные категории живых существ показаны в своих средах обитания по сторонам от центральной мировой оси (axis mundi), вырастающей из водного пространства, проходящей через наземный мир, достигающей небесных сфер и увенчанной изображениями солнца и станций луны. В прямоугольной рамке, помещенной в центре композиции – стилизованная под тамгу крупная антропоморфная фигура восседающая на троне. Опираясь на стилистические особенности изображения, стелу можно датировать эпохой монгольского завоевания и считать единственным пока материальным свидетельством существования тенгрианского культа в Средней Азии.

Ключевые слова: Ташкент, Мингурюк, Чагатайский улус, стела, ковры, зооморфные изображения, монголы, тенгрианство, Чингиз хан, аксис мунд.

1. Topilish va o'rganilish tarixi.

Bu maqolada zamonaviy Toshkent hududidagi Mingo'rik arxeologik yodgorligi yaqinida topilgan, murakkab ko'p figurali kompozitsiya o'yib yozilgan uncha katta bo'lmagan tosh bitik – stela haqida to'xtalib o'tamiz (1-rasm). U 1997-yilda 60-maktab hovlisida olib borilgan qazish ishlari paytida tasodifan topilgan bo'lib, arxeologlarga bu topilma haqida ma'lumot faqat 2002-yil boshida yetib borgan. Ushbu ajoyib yodgorlik G.I. Bogomolov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, ushbu maqolada foydalanilgan fotosurat va chizma ham unga tegishlidir (Bogomolov 2003, 83-95-betlar, 1, 2-rasm). Afsuski, o'sha paytda plita topilgan joyni tekshirish hech qanday natija bermadi (Bogomolov 2003, 84-bet). Topilmani topganlar faqat bitiktoshning "sayoz ko'milgan va yuzi bilan yerga qarab yotganligi haqida xabar berishgan (Bogomolov 2003, 84-bet). Hozir bu tosh tarix o'qituvchisi L.P.Markeyevaning shaxsiy to'plamida saqlanadi, afsuski, u menga artefakti tekshirishga ruxsat bermadi.

Yaxshiyamki, bizda G. I. Bogomolov tomonidan yozilgan toshning jismoniy xususiyatlarining batafsil tavsifi bor: "Bitiktosh qirmizi surg'uch bilan qoplangan kichik tosh bo'lagidir. Singan qismi quyuq kulrang, gorizontall qatlamli mayda donador tuzilishga ega. Tosh biroz tabiiy uchburchak

shaklida bo'lgan. qirralari va poydevori orqaga qarab biroz qiyshiq bo'lib, tosh bitikning balandligi 37 sm, taglikdagi kengligi 25,5 sm, qalinligi 4-5 sm, qirralari va old tomoni biroz o'yilgan, orqa tomonida ohak dog'lari bor. U dastlab vertikal ravishda o'rnatilgan» (Bogomolov 2003, 84-bet).




Рис. 1. Каменная стела из окрестностей Мингюрюка.

Topilmaning arxeologik konteksti haqida ma'lumot yo'qligi sababli, topilma hozirgi Mingo'rik nomi bilan mashhur bo'lgan yirik arxeologik shaharcha yaqinida topilganligini hisobga olish kerak. Ayrim tadqiqotchilar bu yodgorlikni islomgacha bo'lgan Choch/Shosh poytaxti qoldiqlari deb hisoblashga moyil bo'lib, uni fath davridagi arab manbalari Madinat ash-Shosh deb atashgan (Masson 1954, s. 106-108; Buryakov 1975, 64-bet; Buryakov 1982, 130-132-betlar; Bogomolov 2003, 83-bet), boshqalar esa bu fikrni e'tirof etmaydi (Belenitskiy, Bentovich, Bolshakov 1973, 195-bet; Zilper 1973, 52-bet; Bulatova 1973, 127-bet).

Arxeologik materiallar shuni ko'rsatadiki, eramizning III-IV asrlarida bo'lajak shahar o'rnida qal'a bo'lgan, ammo u miloddan avvalgi IV asrda vayron qilingan va aholi tomonidan u yer butunlay tashlab ketilgan. VI-VIII asrlarda aholi punkti rivojlanishining yangi bosqichi sodir bo'ldi: qadimiy bino qoldiqlari bo'lgan tepalik qal'aga asos bo'lib xizmat qilgan va uning atrofida 34 gektargacha bo'lgan shaharcha joylashgan. VIII asr o'rtalarida shahar vayron bo'ldi va bu asrning ikkinchi yarmida undagi hayot deyarli so'ndi. Biroq IX asrdan boshlab bu yerda aholining kamida bir qismi bo'lgan va XI-XII asrlarda aholi punkti hatto jonlanishni boshdan kechirgan, bu XIII asr boshidagi mo'g'ullar istilosiga qadar davom etgan (Buryakov, Zilper 1960, 128-146 betlar; Zilper 1973, 18-58 betlar; Buryakov 1981, 24-25 betlar, 80-85 betlar; Filanovich 1983, 87 b., 90b.). Hozirda shaharchaning butun hududi zich qurilgan, faqat muzeyga aylantirilgan qal'a qoldiqlari bundan mustasno.

G.I. Bogomolov shahar xarobalari va tosh o'rtasidagi aloqani taxmin qilmaydi. U shunday yozadi: "Bitiktosh yirik shahar markazi atrofida topilganiga qaramay, u shahar madaniyatiga emas, balki ko'chmanchilar madaniyatiga oid yodgorlikdir" (Bogomolov 2003, 84-bet). U bu toshni eralar chegarasida yoki milodning dastlabki asrlarida o'rnatilgan va dafn marosimlari bilan bog'liq bitiktosh

deb hisoblaydi. Uning fikricha, bu yodgorlik “qabr ustiga haykal oʻrnatish bilan bogʻliq koʻchmanchilar anʼanasining bosqichlaridan birini aks ettiradi. Bitiktoshdagi tasvirning noyob kompozitsion yechimi - shartli-sxematik tasvirlar (quyosh, hayot daraxti, harbiy atributlarga ega boʻlgan bosh qahramon - erkak qiyofasi) va ularni oʻrab turgan tamgʻalarning uygʻunligi - tasviriylilik shakllari va tamoyillarini izlashdan dalolat beradi” [Bogomolov 2003, 94-bet].

Bitiktoshga qoʻyilgan har bir belgini sinchkovlik bilan va alohida tahlil qilib, G.I. Bogomolov keng koʻlamli oʻxshashliklarni keltiradi va talqin qilishning turli variantlarini taklif qiladi, bunda u baʼzi belgilarni zoomorf deb tushunadi. Shunga qaramay, u markaziy figura atrofida joylashgan barcha kichik belgilarni tamgʻa deb atab, ularga sehrli maʼno beradi (Bogomolov 2003, S. 86-90).

G.I. Bogomolovning turli asarlarida taklif etilgan tamgʻalarning sehrli belgilar va tasviriyl motivlar sifatidagi talqinlari, shu jumladan uning Mingoʻrik bitiktoshidagi tasvirlari talqini Ye.A. Smagulov va S.A. Yatsenko tomonidan qattiq tanqid qilingan [2019, 200-202-betlar]. Biroq, bu ikki tadqiqotchi Mingoʻrik toshining markaziy shaklini antropomorf deb talqin qilishga qarshi emas edilar [Smagulov, Yatsenko 2019, S. 202; Yatsenko va boshqa. 2020, 167-bet].

Yaqinda eʼlon qilgan maqolamda butun tasvirni koinotning vertikal kesimi sifatida koʻrib chiqishni taklif etdim. Kompozitsiyaning markaziy oʻqi - axis mundi boʻlib, u suv fazosidan oʻsib chiqadi va yer dunyosini kesib oʻtib, samoviy qatlamlarga yetib boradi. Yuqori qismida quyosh va oy fazalari tasvirlangan, bu markaziy oʻqning ikki yonida esa har biri oʻz yashash muhitida boʻlgan turli toifadagi jonzorlar aks ettirilgan (Naymark 2023). Tasvirlarning uslubiy xususiyatlariga asoslanib, men Mingoʻrik bitiktoshini moʻgʻullar istilosi davriga oid deb belgilashni taklif qildim.

Ushbu xabar mening oldingi maqolamda taklif etilgan Mingoʻrik bitiktoshidagi tasvir talqini foydasiga keltirilgan dalillarni biroz aniqlashtiradi va tartibga soladi. Soʻngra, umumiy tarixiy vaziyat hamda Sibir va Markaziy Osiyo shomonlari sanʼatidagi oʻxshashliklarni tahlil qilish asosida, butun kompozitsiyani dunyoning tangrichilik manzarasi sifatida talqin etishni taklif qiladi.

2. Kompozitsiya

G.I. Bogomolov, S.A. Yatsenko va E.A. Smagulov Mingoʻrik bitiktoshini tamgʻalar ensiklopediyasi (toʻplami, yigʻindisi) deb hisoblaydilar (Bogomolov 2003, 88-89-betlar; Smagulov, Yatsenko 2019, 193-bet). Bu fikrga qoʻshilish qiyin boʻlib, avvalo, ushbu bitiktoshning Yevrosiyaning turli madaniyatlari vakillari tomonidan bizgacha yetib kelgan va hozirgi vaqtda nashr etilgan koʻplab tamgʻalar ensiklopediyalaridan tubdan farq qilishini taʼkidlab oʻtish lozim.

Mingoʻrik bitiktoshi tamgʻali toshlar uchun mutlaqo xos boʻlmagan qattiq kompozitsion tuzilishning ajoyib namunasini beradi. Undagi tasvirlar bir vaqtning oʻzida rejali bajarilgan. Bitiktoshda vertikal simmetriya mukammal tarzda saqlanib qolgan: toʻgʻri burchakli ramkaga joylashtirilgan asosiy katta shakl hamda uning ostida va ustida vertikal chiziqqa oʻtkazilgan boshqa uchta koʻzgu simmetrik shakllar tasvirning vertikal oʻqini hosil qiladi. Sakkizta kichikroq tasvirlar yon tomonlari boʻylab ikkita parallel ustunda joylashgan. Umuman olganda, butun kompozitsiya boʻylab yon figuralarning oʻlchamlari bir xil emas, biroq ustunlardagi qarama-qarshi figuralar juft-juft boʻlib teng va bir xil tarzda joylashgan, shu bois ular deyarli mukammal gorizontaal qatorni hosil qiladi. Bunday qatʼiy kompozitsiyani biz hozirda Yevrosiyoda maʼlum boʻlgan tamgʻalar ensiklopediyalari (toʻplamlari)ning birortasida ham uchratmaganmiz.

Aynan Mingoʻrik bitiktoshining kompozitsion xususiyatlari Ye.A. Smagulov va S.A. Yatsenkoni “simmetrik kompozitsiyali” ikki yodgorlikdan iborat alohida guruhni ajratishga undadi. Ikkinchi misol sifatida tadqiqotchilar Jambil viloyatidagi Qizilovut qishlogʻi yaqinidagi Beskepa ziyoratgohidagi toshlar tasvirlarini keltirganlar [Smagulov, Yatsenko 2019, 193-bet]. Biroq, taʼkidlash joizki, Beskepadagi tasvirning yaxlit kontur bilan chegaralangan markaziy qismi ham tamgʻalar toʻplami emas, balki tasviriyl motivlar toʻplamidir. Oʻng tomondagi katta shakl hech qanday holatda tamgʻa boʻla olmaydi - bunday murakkab, ayniqsa nosimmetrik egri chiziqlardan tashkil topgan belgilar Yevrosiyodagi tamgʻalar orasida umuman uchramaydi. Bu koʻproq sxematik xaritada landshaft elementiga oʻxshaydi, xuddi oltoylik shomon Kondrat Tanashevning narigi dunyo topografiyasidagi togʻlarning yon tasvirlariga oʻxshab ketadi (Kozinsev 2010, 83-85-betlar). Chiziq bilan chegaralangan maydonning butun chap tomonini egallagan ulkan xochsimon shaklga kelsak, bu koʻchmanchilarning gilam va kigizlarida, xususan, qirgʻizlarning shirdak va

teukele gilamlarida qo‘llaniladigan bezakli rozetkaning nisbatan oddiy ko‘rinishlaridan biridir. Bu yirik shakllar atrofida esa, uzluksiz chiziq bilan chegaralangan tasvir maydonidan tashqarida, alohida tamg‘alar tartibsiz ravishda sochilib yotibdi. Boshqacha aytganda, Beskepe petrogliflari Mingo‘rik toshidagi mukammal tashkil etilgan kompozitsiya uchun ishonchli namuna bo‘la olmaydi.




Рис. 2. Прорисовка стелы.

3. Tasvirning umumiy ma'nosi.

Endi esa belgilarning xususiyati va ularning mazmunining salmog‘iga e‘tibor qaratamiz. Markaziy qatordagi belgilarning bir qismi tamg‘a emasligini aniq ko‘rish mumkin. Markaziy ramka tepasidagi murakkab tuzilishli “qubba” osmon yoritgichlarini aks ettiradi: ichida xochli katta doira - quyoshni, undan pastroqda va markaziy o‘qqa nisbatan simmetrik joylashgan ikkita kichikroq doira esa, shubhasiz, oyning holatlarini ifodalaydi - doiralardan biri bo‘sh, ya‘ni yorug‘, boshqasi esa shtrixlangan, ya‘ni qoraytirilgan. Ramka ostidagi gorizontal siniq chiziq ham tamg‘a bo‘la olmaydi - bunday cho‘zinchoq shakllar ularda hech qachon uchramaydi. Bu suv tasviri bo‘lsa kerak. Boshqacha aytganda, ko‘z oldimizda osmon bo‘ylab samoviy yoritgichlar suzib yurgan, pastda esa suv mavjlanayotgan dunyo manzarasi namoyon bo‘ladi. Dunyo o‘qining ikki tomonida juft-juft joylashgan shakllarga kelsak, bular tirik mavjudotlardir. Nuqtalarning joylashuvi bunga dalolat beradi - ular aynan hayvonlarning ko‘zlari bo‘lishi kerak bo‘lgan joyga qo‘yilgan.

4. Umumiy kompozitsiya va alohida tasvirlarning ma'nosi

Suv chizig'idan pastda biz suv muhitiga xos bo'lgan ikkita shaklni ko'ramiz: chap ustunda shubhasiz baliq (№ 9), o'ng tomonda esa suv qushi (№ 13) tasvirlangan. Ularning o'rtasida joylashgan shakl bilan bog'liq vaziyat murakkabroq. Shubhasiz, u ham piktogramma hisoblanadi, ammo uning shakli juda murakkab bo'lib, zamonaviy tomoshabinda aniq tasviriyo aloqalarni uyg'otmaydi. Natijada, uni tushunish ancha qiyin. Shu sababli, biz unga oxirida, tasvirlangan narsaning ma'nosi haqidagi umumiy farazni shakllantirganimizda va uni taxminiy talqin qilish uchun qo'shimcha asosga ega bo'lganimizda qaytamiz.

Pastdagi ikkinchi qatorda ikkita kattaroq shakl joylashgan bo'lib, ularni ham talqin qilish oson emas, chunki ularda ishlatilgan siniq spiral juda mavhum. Yon qatorlardagi boshqa figuralardan kattaroq bo'lgan figuralarning o'lchami va nisbatlari bizning oldimizda tuyoqli hayvonlar turganini taxmin qilishga imkon beradi. Talqin qilishning bir ehtimoliy varianti: o'ng figura - yon tomoniga yuk ortilgan tuya (№ 12), chap figura esa - orqasida yuki bor ot (№ 8). Agar shakllarning o'lchami hal qiluvchi belgi deb hisoblanmasa, unda chap shaklning spiralini qo'chqor shoxi deb qabul qilish mumkin - bunday aql bovar qilmaydigan darajada kattalashtirilgan shoxlar qadimgi san'atda juda odatiy hol. Bunday holda o'ng tomondagi tegishli tasvir sut beradigan (yoki dumba qo'ygan?) qo'y bo'lishi mumkin.

Keyingi darajada chap tomonda, shubhasiz, markaziy antropomorf figuradagi kabi uchburchak boshli odam tasvirlangan (№ 7). O'ng tomonda esa biz it, bo'ri yoki, ehtimol, mushuksimon yirtqichni ko'ramiz - orqa oyoqlarning shakli ham, ular orasidagi dum tasviri ham shunday talqinni taklif etadi (№ 11). Nihoyat, tasvirlarning yuqori juftligi - uchuvchi mavjudotlar (6-raqam va 10-raqam). Chap tomonda qandaydir hasharot (asalari yoki pashsha bo'lishi mumkin) oltita oyoqli va ikkita yirik, keng joylashgan ko'zli tasvirlangan (boshqa barcha rasmlarda ko'zlarni ifodalash uchun nuqtalar ishlatilgan). O'ng tomonda esa uchayotgan qush ko'rsatilgan - uning harakatdagi qanotlari taroqsimon chiziqlar bilan tasvirlangan, bu shaklning qolgan qismlari pastki o'ng burchakdagi suv qushining tasviriga o'xshash. Boshqacha aytganda, biz koinotning tuzilishi va tirik mavjudotlarning o'z tabiiy muhitlariga joylashtirilgan manzarasini ko'rmoqdamiz. Markaziy axis mundada yoritgichlar bilan suv, yer va osmon, yon ustunlarda esa suv, yer va havo muhitida yashovchilar tasvirlangan. Xuddi shu tarzda, osmon yoritgichlaridan tashqari, butun tasvirni yuqoridan qamrab oluvchi ikkita katta yoyni ham talqin qilish mumkin - ular samoviy sferalarni ifodalaydi.

Mingo'rik bitiktoshidagi dunyo tartibi diagrammasida markaziy o'rinni g'oyat yirik antropomorf shakl egallaydi. Bu oddiy inson bo'lmasa kerak. Bunday talqinga tasvirning o'lchami zid - bu shakl boshqalardan ancha katta va o'ng tomondagi "yerdagi" o'rta qatorda joylashgan odam tasviridan ikki baravar kattaroq (7-raqam). Katta markaziy shaklning alohida maqomini uni ajratib turadigan to'rtburchak ramka ham tasdiqlaydi. Ushbu tasvirning bir elementi qahramonning shohona yoki ilohiy maqomi foydasiga juda muhim qo'shimcha dalil keltiradi - uning ostiga joylashtirilgan pastdan ochiq trapetsiya an'anaviy mo'g'ul tamg'alaridagi taxtning odatiy tasviriga o'xshaydi.

Endi suvning siniq chizig'idan pastroqda, ikkita suvda suzuvchi mavjudot orasida joylashgan eng pastki shaklga qaytaylik. U o'zaro bog'liq uchta elementdan iborat kombinatsiyaga o'xshaydi: markaziy tik shakl va uning ikki yonida unga birlashtirilgan ikkita qush. Bu ko'proq qush protomlari ko'rinishidagi tayanch ustunlari bor taxtda o'tirgan hukmdor yoki iloh tasviriga o'xshab ketadi. Ushbu tasvirning umumiy kompozitsiyada egallagan o'rnidan va eng avvalo, u suv chizig'idan pastda, baliq bilan suv qushi orasida joylashganidan kelib chiqib, qushlar orasidagi markaziy figura suv yoki yer osti ilohini ifodalaydi deb taxmin qilish mumkin. Markaziy figura bo'ylab yoriq o'tgani sababli, u kimni tasvirlayotgani noaniq bo'lib qolmoqda.

Tirik mavjudotlar va odamlarning turli tabaqalarini vertikal iyerarxiyada aks ettiruvchi olam diagrammalari sinfli tuzilma endigina shakllanayotgan va uyushgan din rivojlana boshlagan ilk jamiyatlar san'atida odatiy hol hisoblanadi. Dunyoning bunday iyerarxik tasvirining eng klassik namunalaridan biri miloddan avvalgi IV ming yillikning oxiriga to'g'ri keladigan Varka (Uruk) vazasidagi bo'rtma tasvirlardir (Basmachchi 1947, 118-27-b.; Frankfort 1970, 10-b., 3-rasm). Dunyoni mavjudotlarning turli toifalari bilan vertikal landshaft sifatida tushunishga urinishlar ko'chmanchi jamiyatlarda ham kuzatilgan. Bunday kompozitsiyaning O'rta Osiyodagi eng yorqin namunasi Issiq qo'rg'onidan topilgan kulohda joylashgan oltin plastinalardir (Akishev 1984, 1-jadval). Bu turdagi manzaralar Yevroosiyoda o'rta asrlarda ham saqlanib qolgan, masalan, Sarkel (Oq Qal'a) qal'asidan topilgan mesh bo'ynidagi suyak o'ymakorligida (Pletneva 1999, 124-rasm).

5. Tasvirlarning uslubi xususiyatlari

G.I. Bogomolov tomonidan Mingo'rik bitiktoshi uchun alohida puxta tanlab olingan analogiyalar belgilarining o'xshashliklari qadimgi davrdan to so'nggi o'rta asrlargacha bo'lgan turli davrlarga taalluqlidir. Bunday xilma-xillikning sababi aniq: belgilarning o'zi yetarlicha sodda,

shuning uchun ularning har biriga alohida-alohida turli tarixiy kontekstlarda aniq o'xshashlik topish mumkin. Boshqacha aytganda, alohida belgilarga o'xshashliklarni tanlash aniq sanalarni bera olmaydi va shu sababli, bizning tadqiqotimizda bu yo'nalishda davom etish bir ma'noli natijalarga olib kelmasligi ehtimoli katta.

Buning o'rniga, Mingo'rik toshidagi belgilar yaratilgan umumiy tasviriy tamoyillar tahliliga, ya'ni u yerda qo'llanilgan badiiy tilning o'ziga xos xususiyatlariga tayanishga harakat qilish mumkin. Gap faqat uslublashtirish, ya'ni tasvirlarni rasmiylashtirish darajasi va ularni haqiqiy namunalardan uzoqlashtirish haqidagina emas. Shuningdek, tasvirlarni yaratish jarayonining qanday texnik xususiyatlari bunday kuchli rasmiylashtirilgan geometrik shakllarning paydo bo'lishiga sabab bo'lganligini tushunish juda muhim. Boshqacha aytganda, bu yerda qo'lyozmalarni o'rganishda qo'llaniladigan "paleografik" tahlil kabi manbashunoslik tadqiqotining standart elementiga juda o'xshash bo'lgan sof rasmiy usuldan foydalanish mumkin.

Nihoyatda qiziqarli bo'lgan bu asar muallifining hamma figuralarni to'rtta standart elementdan tuzganligidan boshlaymiz: 1. Bir chiziqli, to'g'ri yoki siniq chiziq; 2. Nuqtalar; 3. Siniq spiral; 4. Uch qirrali taroq. Rassom doira va yoylarni tasvir obyektining o'zi unga boshqa yo'l qoldirmagan hollardagina qo'llagan. Qizig'i shundaki, qarama-qarshi joylashgan shakllarni qurishda rassom ularni teng o'lchamli qilib, o'xshash elementlardan foydalangan va shu bilan kompozitsion muvozanatni yaratgan.

Umuman olganda, Mingo'rik bitiktoshida ko'rib turgan oddiy chiziqlardan shakl yasash usuli Yevrosiyodagi tamg'alarga xos xususiyatdir. Odatda, bu tamg'alarda sezilarli darajada rasm bilan to'ldirilgan maydonlar bo'lmaydi. Bunday "chiziqlilik" - bu belgilar toifasining rivojlanishidagi dastlabki bosqichning qoldig'i hisoblanadi. O'sha paytda tamg'alar mulkni belgilash uchun ishlatilgan va ular qizdirilgan tamg'a-tavr yordamida chorva mollarining terisiga bosilgan. Biroq, Mingo'rik toshidagi tasvirlarda tamg'asimon belgilarda ko'p uchraydigan yoy va doiralar deyarli yo'q. Mingo'rik toshi yaratuvchisining egri chiziqlar o'rniga siniq chiziqlarni bu qadar aniq afzal ko'rishi g'oyat g'ayrioddiy ko'rinadi va bu hol izohtalab.

Bunday burchakli usulda tasvirlarni qurish odatda o'rilgan, to'qilgan va matoli buyumlar uchun xos bo'lib, bunday yondashuv toshga o'yilganda bo'lishi mumkin bo'lmagan materialning texnologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Ayniqsa, bunday burchakli uslub gilamlar uchun xosdir. Mingo'rik bitiktoshidagi tasvir gilam yoki to'qimachilik pardasidan ilhomlangan bo'lishi mumkinmi? Ushbu taxminga asoslanib, to'qimachilik va gilamchilik an'analari tarixida tasviriy tilning o'xshash turini qayerda uchratishimiz mumkinligini aniqlashga harakat qilamiz.

6. Gilam san'atidagi o'xshashliklar va Mingo'rik bitiktoshining yaratilish davri.

O'rta Osiyoning qadimgi va ilk o'rta asrlar matolari hamda gilamlari, hozirgi ma'lumotlarimizga ko'ra, tasviriy motivlarni uslublashtirish va rasmiylashtirish darajasiga yaqin emas. Masalan, biz Ahamoniylar davlatining O'rta Osiyo viloyatlarida ishlab chiqarilgan Pazyir gilamlarida (Rudenko 1968) odamlar, kiyiklar va otlarning to'liq naturalistik tasvirlarini ko'ramiz (Rubinson 2017). Ellinizm va postellinizm davri Baqtriya to'qimachiligida naturalizm yangi bosqichga ko'tarildi. Bu haqda Xo'tandan 30 km g'arbda joylashgan Sampul/Shampuldan topilgan gobelen yaqqol guvohlik beradi (Zhao Feng 2004, 294-195-betlar; Stewart 2022, 231-234-betlar). Noin-ulining materiallari shuni ko'rsatadiki, yangi Kushon erta sulolaviy uslubi paydo bo'lganidan keyin ham Baqtriya gilamlari yuqori darajadagi tasviriylikni saqlab qolgan (Polosmak 2015). Loulandan Auriyel Steyn tomonidan olib kelingan erkak boshi va kadutsey tasvirlangan mato parchasi milodiy III-IV asrlarda ham to'qimachilik tasvirlarida, monumental rangtasvirda bo'lgani kabi, Rim chiaroscuro tamoyillari saqlanib qolganligidan dalolat beradi (Stewart 2022, 234-236-betlar). Biz yaqinda Xo'tandan topilgan ilk o'rta asr gilamlarida yanada uslublashtirilgan tasvirlarni ko'ramiz, ammo ularda geometriyalashuv endigina boshlanmoqda (Zhang 2013). Sug'd rassomlari VII asr oxiri - VIII asr boshlaridagi devoriy rasmlarda gilam va matolar tasvirlarida ko'rsatgan hayvonlar obrazlari ham juda naturalistikdir (Albaum 1975; Belenitskiy 1973; Belenitskiy 1980). Al-Saboh kolleksiyasidagi hayvonlar qiyofasi va ilk o'rta asr gilamlari deyarli naturalistik tarzda aks ettirilgan bo'lib, ular, shubhasiz, Janubiy O'rta Osiyoga borib taqaladi (Shpuhler 2014). VII-X asrlarda Xitoy chegaralaridan Shimoliy Kavkazgacha va janubda Suriya hamda Erongacha bo'lgan

keng hududda tarqalgan sugʻd matolari va ularga taqlid qilingan matolarda ham tasvirlarni geometriyalashtirish jarayoni endigina boshlanganligi kuzatiladi (Gasparini 2019). Boshqacha aytganda, Oʻrta Osiyoning islomgacha boʻlgan gilam va umuman toʻqimachilik sanʼatidagi figurali dizayn hech qachon Mingoʻrik bitiktoshida koʻrgan geometrik rasmiylashtirishning darajasiga yetmagan. Yana bir bor taʼkidlash kerakki, masala musulmonlikka boʻlgan Oʻrta Osiyo gilamlarida odamlar va hayvonlar tasvirlarining mavjudligida emas, balki bu odamlar va hayvonlar tabiiy yoki deyarli tabiiy uslubda, eng kam rasmiylashtirish darajasi bilan tasvirlanganligidadir.

Oʻrta Osiyo toʻqimachilik sanʼatida tasvirlarni formallashtirishning jadal jarayoni ilk islom davridagina boshlanadi. Bunga milodiy X asr oʻrtalarida Buxoroda Varaxsha saroyi tasvirlariga borib taqaladigan anʼana asosida yaratilgan Baxt-tegin tirazi yaqqol misol boʻla oladi (Belenitskiy, Bentovich 1961, S. 74-75; Beleniski, 1980, 55-bet; Naymark 2003, 32-band; Naymark 2017). Biroq, X asrning ikkinchi yarmiga oid bu ajoyib yodgorlikda ham tasvirlar hali bizning Mingoʻrik toshimizdagidek geometriklashtirilmagan.

Afsuski, somoniylardan keyin Oʻrta Osiyo toʻqimachiligi, ayniqsa, Movarounnahr va Xuroson gilamlari haqidagi bilimlarimizda sezilarli boʻshliq mavjud. Ushbu mintaqadan topilgan figurali dizaynga ega boʻlgan eng qadimgi islom davri gilamlari Konya muzeyida saqlanmoqda (3-rasmga qarang). Ular uchun XIII asrdan boshlab turli sanalar taklif qilingan, ammo koʻpchilik tadqiqotchilar ularni XV asrga tegishli deb hisoblashadi. Bu gilamlar bizning toshlarimizga nisbatan tasvirlar uslublashuvining navbatdagi bosqichini namoyon qiladi.



3-rasm. Konya muzeyida XV asr gilamlari (Turkiya).

Kechki davrlarda Oʻrta Osiyo toʻqimachilik sanʼati tasviriy sanʼatdan butunlay uzoqlashib, gilam va kashtalarning mutlaq koʻpchiligida faqat naqshlardan foydalanilgan. Albatta, bu tamoyildan ayrim chekinishlar ham boʻlgan, masalan, togʻli tojik ayollarining toʻy pardalarida qushlarning tasvirlari [Kislyakov 1953], ammo bular umumiy qoidani tasdiqlovchi istisnolardir.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, Mingoʻrik bitiktoshining badiiy tilini XI-XV asrlardagi gilamchilik anʼanasi bilan bogʻlash mumkin edi. Aniqroq sanani belgilashning hozircha iloji yoʻq - bizning ixtiyorimizda bu toʻrt asr doirasida bizga tayanch sanalarni taʼminlay oladigan oʻxshashliklar yoʻq. Bunday keng xronologik doiralar, albatta, talqin qilish uchun koʻp imkoniyatlar beradi va ushbu maqolaning keyingi barcha tuzilmalarini hozircha asosli deb boʻlmasa-da, biroq, ular eng ehtimoliy boʻlgan gipotezani shakllantirishga yordam beradi.

7. Tarixiy va diniy kontekst

Dastlab rasmning diniy mansubligi haqidagi savoldan boshlaymiz. XI-XIV asrlar davomida Chochda islom dini hukmronlik qilgan. Biroq, Mingoʻrik bitiktoshida tasvirlangan dunyo manzarasi islom kosmografiyasiga hech ham mos kelmaydi, chunki uning markaziy tasviri shubhasiz antropomorfdir. Shuning uchun ham musulmon Oʻrta Sharqining oʻrta asrlar sanʼatida Mingoʻrik toshiga hech qanday oʻxshashlikni topishning imkoni boʻlmaganligi ajablanarli emas. Xuddi shu

sababga ko'ra, O'rta Osiyoda o'sha davrda mavjud bo'lgan dinlar ro'yxatidan yahudiylikni ham chiqarib tashlash mumkin.

Biz yana shuni bilamizki, o'sha davrda Chochda bir qancha nasroniylar, ham nestorianlar, ham melkitlar yashagan. Biroq, bizning bitiktoshimizda tasvirlangan tabiatning vertikal kesimi ushbu diniy muhit bilan bog'liq bo'lishi dargumon. Avvalo, shunchalik ko'p kodlangan tasvirlarga ega bo'lgan xristian yodgorligida hech qanday xristian ramzlari, ayniqsa, xochlar bo'lmashligini tasavvur qilish qiyin. Sharqiy xristianlik san'atida ham inson yashaydigan dunyoning bunday tasviri ikonografik o'xshashliklarni topmaydi.

Nihoyat, ilk o'rta asrlardan boshlab, Chochda buddaviylar ham bo'lgan. Garchi biz u yerda ilk islom davrida budda jamoalari saqlanib qolgan-qolmaganini bilmasak-da, XIII asr mo'g'ul ma'muriyati vakillari orasida ushbu ta'limot tarafdorlari bo'lganligiga ishonish qiyin. Biroq, Mingo'rik kompozitsiyasini mandallar, ya'ni buddaviylik olamining an'anaviy tuzilgan tasvirlari bilan taqqoslash (Jukovskaya 1977, 44-61-betlar) hech qanday umumiy xususiyatlarni topmaydi.

Yana bir ehtimol tangrichilikdir. U chingiziylarning dastlabki avlodlari davrida Mo'g'ul imperiyasining rasmiy dini sifatida xizmat qilgan. Chig'atoy ulusida, boshqa e'tiqodlarga nisbatan umumiy bag'rikenglik mavjud bo'lsa-da, Tangriga sig'inish kamida 1268-yilda islomni qabul qilgan Baroqxon (1266-1270) hukmronligiga qadar sulolaviy e'tiqod bo'lib qolgan. Bundan tashqari, bu hukmdorning islomni qabul qilishi ham mo'g'ul hukmron doiralarining to'liq islomlashuviga olib kelmagan va bu hukmdorning ba'zi vorislari tangrichilikka e'tiqod qilishni davom ettirgan. Boshqacha aytganda, tangrichilik O'rta Osiyoning ma'naviy hayotida 1224-yildan boshlab va hech bo'lmaganda 1268-yilgacha, ya'ni yarim asrdan sal kamroq vaqt mobaynida g'oyat muhim o'rin egallagan.

Agar sof tarixiy mulohazalardan kelib chiqadigan bo'lsak, Mingo'rik bitiktoshi tangrichilik yodgorligi bo'lishi mumkin. Biroq, bunday talqin qilishga urinib ko'rganimizda, biz butunlay boshqacha muammoga duch kelamiz - bu so'zning to'g'ridan to'g'ri ma'nosida taqqoslash uchun hech narsa qolmaydi. Darhaqiqat, o'sha davrdagi tangrichilik ikonografiyasi haqida bizga hech narsa ma'lum emas. Qolaversa, biz shu paytgacha nafaqat Chochda, balki Movarounnahrning hech bir yerida tangrichilikning moddiy izlarini ko'rganimiz yo'q!

Shuning uchun Mingo'rik toshidagi kompozitsiyaning o'ziga yana bir bor qaytamiz. U yerda tasvirlangan dunyo tartibi manzarasi - bu turli toifadagi tirik mavjudotlarning yashash muhitidagi tabiat saltanati bo'lib, unda hech qanday qo'lda yaratilgan inshootlar: saroy yoki ibodatxona binolari, aholi punktlarini "belgilaydigan" inshootlar fortifikatsiyalari yoki hech bo'lmaganda monumental darvozalar tasvirlanmagan. Tabiiyki, dunyoning bunday manzarasi o'troq dehqonchilik xalqining ijtimoiy tuzilishini emas, balki chorvadorlar va ovchilarning tabiiy dunyosini aks ettirgan, degan taxmin paydo bo'ladi.


8. Mingo'rik bitiktoshi kompozitsiyasining analoglari

O'rta asr manbalarida tangrichilik haqida saqlanib qolgan ma'lumotlar nihoyatda cheklangan bo'lsa-da, bu dinning ilk shakllarini qayta tiklashga urinayotgan olimlar ko'pincha Tuva, Xakasiya, Oltoy va Mo'g'ulistonning etnografik materiallariga murojaat qilishadi. Ular bu hududlarda an'anaviy tangrichilik e'tiqodlarining asl shakli elementlari saqlanib qolgan deb hisoblashadi (Potapov 1973; Klyashtorniy 1981, 117, 119-betlar; Voytov 1996, 40-41-betlar; Rozvadovski 2012, 279-280-betlar). Bunday yondashuv Mingo'rik toshi misolida yanada o'rinli ko'rinadi, chunki bizda O'rta Osiyoning shu davrdagi qiyosiy materiali mutlaqo yo'q.

Janubiy Sibir va Markaziy Osiyo shamanizmiga murojaat qilganimizda, murakkab ko'p figurali kompozitsiyali buyumlarning композиция bir toifasini - shomon doiralarini uchratamiz. Oltoy shamanizmiga bag'ishlangan kitobida ularga alohida bob ajratgan L.P. Potapovning so'zlariga ko'ra, "har bir doira go'yo ixcham sayyor ibodatxona edi. Unda doiraning naqshlar bilan qoplangan teri yuzasi ko'rinishidagi "ikonostas" mavjud edi" (Potapov 1991, 165-bet).

Aynan Oltoy shomon doiralarida bizga tanish bo'lgan dunyoning vertikal kesimi yaqqol tasvirlangan: kompozitsiya markazida odatda butun tasviriy maydonni qamrab olib, osmon yoritgichlariga yetib boradigan axis mundi (dunyo o'qi) joylashgan bo'lib, uning ikki tomonida odatda odamlar, hayvonlar va o'simliklarning kuchli uslublashtirilgan tasvirlari joylashgan (4-rasm). Bunda gorizontaal chiziqlar

yoki yoʻllar butun maydonni vertikal boʻyicha uch zonaga: osmon, yer va yer osti zonalariga ajratgan. Boshqacha aytganda, Mingoʻrik bitiktoshi va Oltoy shomon doiralari eng keng tarqalgan anʼanaviy turidagi kompozitsiyalar orasida yaqqol oʻxshashlik koʻzga tashlanadi. Eng muhimi shundaki, butun tasvir tuziladigan “kartografik” tamoyilning oʻzi ham bir xil.



4-rasm Oltoy shomon doʻmbirasi

Shomon doʻmbiralariidagi tasvirlar bilan oʻxshashlik faqat shakliy tomondan cheklanmaydi. L.P. Potapovning kuzatishicha, doʻmbiralardagi rasmlar majmui “shimoliy teleutlar, shorlar, kumandinlar, tubalarlar, chelkanlar, sagaylar, kachinlar, beltirlar va boshqalarda... uch qismli tuzilishi, yaʼni osmon, yer va yer osti qatlamlari bilan koinotni ramziy tarzda ifodalagan” (Potapov 1991, 165-bet). Bu tasvirlar oltoyliklarda dunyoning vertikal boʻlinishini aks ettirgan, ular odamlar yashaydigan yer dunyosini osmon va yer osti dunyosiga qarama-qarshi qoʻyishgan (Anoxin 1924: 1-18; Potapov, 1982: 538-540; Sagalayev va boshqalar 1988; Tadina 2009, 66-bet). Boshqacha aytganda, Mingoʻrik toshi va shomon doʻmbiralari taqqoslaganda, tasavvurlarning umumiyligi ham koʻzga tashlanadi. Albatta, oltoy va xakaslarning bizgacha yetib kelgan shomon doʻmbiralari ancha keyingi davrlarga tegishli boʻlib, ular XIX va XX asrning birinchi yarmida etnografik ekspeditsiyalar tomonidan toʻplangan (masalan: Anoxin 1924). Biroq, shomon doʻmbiralariidagi prinsipial tasviriy sxemalarning uzoq vaqt saqlanib qolishidan qoʻrqish mumkin, chunki ular “kamaning individual tasavvuri boʻyicha emas, balki anʼanaviy diniy eʼtiqodlar va tasavvurlarga koʻra” yaratilgan (Potapov 1991, 165-bet). Boshqacha aytganda, doʻmbiralarda tasvirlangan kompozitsiyalar oʻrta asr namunalari, Mingoʻrik bitiktoshidagi sinxron tasvirlarga borib taqalishi mumkin edi.

Garchi oʻrta asrlarda marosimlarning bir qismi boʻlganligi aniq boʻlsa ham, shomonlik eʼtiqodida doʻmbiralarning paydo boʻlish vaqti haqidagi masala hali hal qilinmagan, (Potapov 1981, 124-125-betlar; Devlet 2001-yil, 49-band; Rozvadovski 2012, 281-bet). Sibir va Oʻrta Osiyo petrogliflari orasida doʻmbira chalgan shomonlarning tasvirlari mavjud boʻlib, ularning baʼzilarida Mingoʻrik bitiktoshining kompozitsiyasiga oʻxshash uch darajali dunyo tartibi tasvirlari mavjud.

(Devlet 2001, fig. 3.2-3.6, 3.9, 3.10; Rozvadovski 2004). Afsuski, bizda ularning aniq sanasini belgilash uchun mezonlar yo'q va ular bilan ishlaydigan tadqiqotchilar "yaqin tarixiy davrlar" kabi juda noaniq iboralar bilan cheklanadilar. Petroglif tadqiqotlari kontekstida bunday ta'rif mo'g'ul istilosi davridan XX asr boshlarigacha bo'lgan juda keng xronologik spektrni o'z ichiga olishi mumkin.

Yevropa adabiyotida shomon do'mbiralarning dastlabki tasvirlari XVII asrda Yevropa shimoli va Sibir xalqlari hayotini aks ettiruvchi graviyuralarda paydo bo'ladi. U yerda biz osmon, yer va yer osti sferalariga bo'lingan olamning vertikal kesmalarini ham uchratamiz.

Ma'lum materiallardagi bunday katta xronologik tafovutga qaramay, Mingo'rik bitiktoshi va shomon do'mbiralari koinot tuzilishi haqidagi juda yaqin tasavvurlarni aks ettirishi hamda bir an'anaga tegishli ekanligiga shubha qilish qiyin.

9. Oltoy shomon doiralaridagi tasvirlardan farqi.

Mingo'rik toshidagi kompozitsiyaning shomon do'mbiralardagi shunga o'xshash tasvirlardan asosiy farqi shundaki, kompozitsiyaning qoq markazida, to'g'ridan-to'g'ri axis mundining ustiga qo'yilgan ramkada taxtda o'tirgan yirik odam figurasi ko'rinadi. Ushbu yangi elementni dastlabki mo'g'ullar davrida tangrichilikda yuz bergan o'zgarishlar bilan bog'lash muhim bo'lib, u dastlabki politeizmdan yangi avtokratik davlat maqsadlariga xizmat qiladigan monoteistik dinga o'sib o'tish davrini anglatadi (Roux 1984; Bayarsaikhan 2021, 628-9). Fransuz sayyohi Rubrukning guvohlik berishicha, mo'g'ullarning oliy hukmdori Munkaxon o'z dinining mohiyatini shunday ta'riflagan: "Faqat bitta Xudo bor, biz u bilan yashaymiz va u bilan o'lamiz va bizning unga qalbmiz ochiq" (Rubruk 1957, 173-bet; Rubrusk 1900, 46-bob).

Afsuski, bizda hali mavjud bo'lmagan qo'shimcha ikonografik parallellarsiz taxtdagi katta figura kimni ifodalashini aniq aytish imkoni yo'q. Mo'g'ullar imperiyasi sharoitida, diniy mafkura "osmonda yagona xudo, yerda yagona podsho" formulasiga asoslangan bir paytda, bunday o'ta uslublashtirilgan tasvir ham tangri, ham podshoni birdek ifodalashi mumkin edi.

Birinchi taxtinga qarshi turkiy va mo'g'ul xalqlari san'atida Tangri tasvirlarining yo'qligi tadqiqotchilarni tangrichilikning umumiy anikonizmi haqidagi tezisga olib keldi. Boshqa tomondan, bitiktoshdagi suv sathidan pastroqda joylashgan protom suzuvchi qushlardan yasalgan taxtdagi figura suv yoki xtonik xudo bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, tangrichilikda umumiy yakkaxudolik g'oyasi hukmron bo'lgan sharoitda ham narigi dunyo hukmdori Erlikxon obrazi doimo mavjud bo'lgan (Potapov 1991, 245-259; Mendesheva 2012). Oltoy mifologiyasida, XIX-XX asrlardagi etnografik tadqiqotlarda tasvirlangan ko'rinishda, Erlikning yer osti dunyosida ko'plab suvlar: daryo, ko'llar, dengiz va hatto okean mavjud bo'lgan. To'g'ri, bu oddiy suvlar emas, balki inson qalbini qamrab olgan qora va qizil suvlaridir (Sagallayov 1992, 79-86-betlar; Oynotkinova 2018, 55-bet). Erlikning o'zi qora qayiqda eshkaksiz suvda suzib yuradi (Anoxin 1924, 4-bet). Xakas mifologiyasida esa suv dunyoning o'rta sferasini quyi sferadan ajratib turadi va bu quyi sferaning o'rtasida o'liklar saltanati - Yuzut chiri joylashgan bo'lib, "to'qqizta dengiz birlashib, bitta ulkan dengizni hosil qilgan" (Burnakov 2008, 608-bet).

Mingo'rik toshining pastki figurasi Erlik sifatida aniqlanishi mumkinligi sababli, bu personaj o'tirgan taxt alohida qiziqish uyg'otadi. Bunday ikonografiyaning manbai O'rta Osiyo xudolarining zoomorf shaklidagi taxtlardagi tasvirlari ekanligiga shubha yo'q. Dasht dunyosi bu tasvirlar bilan ilk o'rta asrlardayoq tanishgan edi (Belenitskiy 1961; Shkoda 1985). Shuning uchun, shubhadan xoli emaski, Mingo'rik toshining pastki figurasi tasvirlangan suv qushlari protomiga ega taxtda ko'pincha nomiga "xon" unvoni qo'shib aytiladigan Erlikning obrazi shohlik maqomida aks ettirilgan bo'lishi mumkin. (Samashev, Aytkali, Tolegenov 2022, B. 24-31, 6 va 7-rasmlar).

Biroq, agar quyi figurani xudo deb qabul qilsak, unda kompozitsiyaning markazidagi o'sha axis mundidagi ramkaga joylashtirilgan kattaroq antropomorfik tasvir hozirgi vaqtda turli turkiy va mo'g'ul etnik guruhlarida turli nomlar bilan namoyon bo'lgan oliy xudoning yagona ma'lum tasviri bo'lishi mumkin: Ulgen, Tengri va boshqalar (Rox 1984; Potapov, 1991, S. 245-273; Mendesheva 2012).

Boshqa tomondan, Xitoy imperatori bilan bo'lgani kabi, mo'g'ullarning oliy hukmdori qarorgohi dunyoning markazi sifatida tasavvur qilingan. Bunday holda, osmonni yer bilan

bog'laydigan axis mundi undan o'tishi mumkin. Bunday mulohazalarga asoslanib, markaziy ramkadagi figura podshoh-kohinni (yoki din tarixidagi boshqa atamalar bilan aytganda, "podshoh-payg'ambar" yoki "podshoh-shomon") tasvirlagan, deb taxmin qilish to'la asosli bo'lardi, u tom ma'noda Chingizxon davridan keyingi mo'g'ul tangrichiligining markaziy figurasi bo'lgan. Bu hukmron chig'atoychilik hamda tangrichilikning ajralmas qismiga aylangan "abadiy tirik" Chingizxonning o'zi ham bo'lishi mumkin edi (Bira 2004, 5-6-betlar).

Bu yerda yana bir bor ta'kidlash muhimki, markaziy obrazning ham xudo, ham podsho sifatidagi ikkala talqini ham hech qanday darajada isbotlanmagan va qo'shimcha hujjatli tasdiqlashni talab qiladigan sof xayoliy taxminlar bo'lib qolmoqda.

Tasvirni tushunish uchun kompozitsiyaning yana bir g'ayrioddiy xususiyati muhimroq: Mingo'rik bitiktoshi dunyo manzarasi shomon do'mbiralardagi manzaralardan o'zining qat'iy tuzilishi va barcha e'lon qilingan mavzularni taqdim etishda mutlaq tizimlilik bilan ajralib turadi. Haqiqatan ham, bitiktosh uchun tasvirlarni tanlash asosida muqobil belgilar asosida qurilgan rasmiy binar tasniflash mantig'i yotadi: pastki qatorning suv bo'shlig'ida - suvda suzuvchi qush va baliq; yuqori qatorning havo sferasida - hasharot va uchayotgan qush; yerda esa odam va yirtqich bir qatorda, ikki xil o'txo'r boshqa qatorda ko'rsatilgan. Mingo'rik kompozitsiyasining bu xususiyatini u yoki bu tarzda Aristotel mantig'i tamoyillaridan kelib chiqadigan boshqacha, yanada rasmiylashtirilgan tafakkur turiga kiritish mumkin edi. Bu shuni anglatadiki, syujetning umumiyliigi va ma'lum darajada ikonografiyaga qaramay, toshdagi tasvirlar dunyoni falsafiy tushunishning boshqa darajasini aks ettiradi. O'troq dehqonchilik dunyosining tafakkur standartlariga moslashgan va ilg'or diniy tizimlar ta'sirida rivojlanib isloh qilingan tangrichilikdan an'anaviy syujetning aynan shunday o'zgarishini kutish mumkin edi.

10. Mingo'rik bitiktoshining shakli va tasvir xususiyatlari

Yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda, biz yana yagona ishonchli manbaimizga, Mingo'rik bitiktoshining o'ziga qaytishga harakat qilamiz. Birinchi navbatda, Mingo'rik toshining tasviriy maydonining shakli e'tiborni tortadi - u uchi konussimon (uchburchak osti) bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklida. Bunday konfiguratsiya ko'pincha xitoy stellarining yuqori yakunlovchi elementi "fronton"ga xos bo'lib, u ba'zan figurali, ba'zan nishabli tomning chiqib turgan cheti ko'rinishida bezatilgan. Bu Tan toshlari yakuniy davrining deyarli eng standart shakllari bo'lib, 781-yilda Siandagi xristian bitiktoshi bunday dizaynning o'ziga xos namunasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bizni qiziqtirgan Yuan davrining ba'zi bitiktoshlarida ham xuddi shunday kompozitsion usulni uchratamiz. Masalan Jia Sheng Hao toshi bunga misol bo'la oladi.

Ehtimol, Mingo'rik bitiktoshining markaziy antropomorfik tasvirining murakkab shakli qaysidir ma'noda chjuanshuning kvadrat usuldagi xitoy iyerogliflarini aks ettiradi. Ammo figura xitoy yozuviga moslab uslublashtirilgan bo'lsa ham, bu Mingo'rik stelasidagi kompozitsiyaning kelib chiqishi xitoycha ekanligini aslo anglatmaydi. Har holda, Xitoy san'ati orqali men dunyoning mingo'rikcha manzarasiga to'g'ridan to'g'ri ikonografik moslikni, uning yon ustunlaridagi hayvonlarning rasmiylashtirilgan tasvirlariga ishonarli uslubiy o'xshashliklarni topa olmadim.

Boshqa tomondan, toshning o'tkir uchi musulmon masjidining mehrob shaklini aks ettirishi mumkin edi. Bunday uchburchaksimon toqi tepasi XIII asr Xuroson mehroblariga xos xususiyatdir. Shu bilan birga, badiiy bezak an'anasi ancha rivojlangan dinning san'at unsurlaridan foydalanish ushbu holatda tabiiydek ko'rinardi. Biroq, bu yerda yana bir bor ta'kidlash lozimki: hatto bizning toshimiz tepasi bilan mehrob tokchasi yuqori qismi o'rtasidagi o'xshashlik tasodifiy bo'lmasa ham, bu kompozitsiyaning kelib chiqishini mintaqaning musulmon san'atidan izlash kerak, degan ma'noni anglatmaydi (yuqoridagi maqolaning yettinchi bo'limiga qarang).

Ikkala holatda ham gap qandaydir doimiy ziyoratgohda joylashgan bo'lishi kerak bo'lgan narsalar haqida bormoqda. Mo'g'ullar davrida ibodatxona Mingo'rikda joylashgan bo'lishi mumkinmidi? Chunki, arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, shahardagi hayot mo'g'ullar istilosi davrida to'xtagan edi.

11. To'qimachilik an'anasi bilan bog'liqlik

Tangri ibodatxonasi qanday ko'rinishda bo'lishi mumkin? Aniq ma'lumotlar yo'qligi sababli bu savolga aniq javob berishning iloji yo'q. Biroq, mo'g'ul imperiyasining shakllanishi va kengayishi

bilan tangrichilik muqaddas makonlarining me'moriy shakllari tez rivojlangan deb taxmin qilish mumkin. Shu bilan birga, ularning dastlabki shakli, chodir/o'tov haqida mutlaqo aniq gapirish mumkin.

Tangrichilik Chingizxon davridayoq davlat e'tiqodi sifatida joriy etilgan edi. Shuning uchun unga bag'ishlangan dastlabki ibodatxonalar 1220-yillarning boshlarida paydo bo'lgan bo'lishi kerak. Imperator 1227-yilda vafot etgach esa, osmon kulti bilan chambarchas bog'liq holda Chingizxonning o'ziga sig'inish kultining ham shakllanishi yuz berdi.

Shu bilan birga, 1234-yilda Mo'g'ulistonga kelgan ikki sun elchisi Pen Da-ya va Syuy Tinning yozuvlarini birlashtirgan Xey-da Shiluye asarining guvohlik berishicha, mo'g'ullar bu vaqtda hali ham kigiz chodirlarda yashashda davom etganlar va ularning mudofaa devorlari va doimiy turar joylari bo'lgan shaharlari yo'q edi. Xon qarorgohining o'zi ham ko'chma bo'lib, u yer Chingizxon e'tiqodining markazi bo'lgan va u joyda umumdavlat Tangri ziyoratgohi joylashishi kerak edi. Birinchi saroy binosi Tyumen Amgalan O'rdning qurilishi va uning atrofida birinchi mustahkamlangan shaharning barpo etilishiga faqat 1235-yilda farmon berilgan edi.

Shunga ko'ra, tangrichilik davlat dini sifatida qaror topgan dastlabki o'n yillikda uning muqaddas makoni vazifasini chodirlar/o'tovlar bajarganiga shubha yo'q. Bunday ko'chma ziyoratgohlarda tosh bitiklarning bo'lishi ehtimoldan yiroq. E'tiborga olish joizki, mo'g'ul madaniyatida, boshqa dasht xalqlaridagi kabi, haykaltaroshlik tasvirlari va ongonlar asosan yog'och, teri, kigiz va matolardan yasalgan (Rubruk 1957, 94-bet; Zelenin 1936). Koinot manzarasi masalasiga kelsak, unga ko'ra yetarlicha keng tekislikdagi ikki o'lchovli tasvir haqida gap borishi kerak. Shu bois, dastlabki tangri ibodatxonalarida dunyoning bunday manzarasi gilam, kashta tikilgan parda yoki hech bo'lmaganda kigiz applikatsiyasi shaklida aks ettirilgan bo'lishi ehtimolga yaqin. Ushbu mulohazalar Mingo'rik toshidagi tasvirning to'qimachilik naqshiga o'xshashligini izohlashi mumkin: chodirli ziyoratgohdan doimiy ziyoratgohga o'tish jarayonida to'qilgan tasvirlar toshga ko'chirilgan, biroq rassom gilam va kashtalarga xos bo'lgan tasvirlarni uslublashtirish tamoyillarini saqlab qolgan, garchi bu qattiq materialda ishlashda mutlaqo o'rinsiz bo'lsa-da.

12. Xulosa

Kichik izlanishimizni yakunlar ekanmiz, unda bayon qilingan mulohazalarning ba'zilar mutlaqo ishonchli va qo'shimcha isbot talab qilmaydigan bo'lib ko'rinishini, boshqalari esa muallif nuqtayi nazaridan eng ishonchli, ammo qat'iy o'rnatilmagan farazlar bo'lib qolishini yana bir bor ta'kidlamochimiz. Ushbu mulohazalarning birinchisiga toshdagi tasvirni olam manzarasi sifatida talqin qilish kiradi. Ikkinchisi – toshning XIII asrga mansub deb bilib, uning tangrichilik e'tiqodining yodgorligi sifatida talqin qilishdir. Ikkinchi guruhning gipotetik mulohazalarida ilgari surilgan barcha dalillarning shartlilikini to'liq anglagan holda, men o'quvchilarga bu nazariyalarni taqdim etishni afzal deb bildim, toki ular o'zlari taklif qilingan bu nazariyalarni rad etish yoki ularni tasdiqlash uchun yangi materiallarni topa olsinlar. Har ikkala holda ham bu yerda aytilgan mulohazalar foydali bo'ladi, chunki bu g'oyat qiziq bo'lgan ushbu noyob yodgorlikka e'tiborni jalb qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Акишев А.К. Искусство и мифология саков. Алма-Ата, 1984.
2. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. Ташкент, 1975.
3. Анохин А.В. Материалы по шаманству у алтайцев, собранные во время путешествий по Алтаю в 1910-1912 г.г. по поручению Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии (Сборник МАЭ; т. 4, вып. 2). Издательство Российской Академии Наук, 1924
4. Беленицкий, А.М. Зооморфные троны в изобразительном искусстве Средней Азии. // Известия АН Тадж. ССР. Отделение общественных наук. №1 (28). Душанбе: 1962. С. 14-28
5. Беленицкий А.М. Монументальное искусство Пенджикента. М., 1973
6. Беленицкий А.М., Бентович И.Б. Из истории среднеазиатского шелкоткачества (К идентификации ткани «занданечи»). // СА. 1961. № 2. С. 66 -78.

7. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Ленинград: Наука, 1973
8. Богомолов Г.И. Каменная стела из окрестностей Мингурюка // Археология, этнография и антропология Евразии, 2003, № 4, С. 83-95
9. Булатова В.А. и др. Глава ИИИ. Раннесредневековые памятники на территории Ташкента // Древний Ташкент / В. А. Булатова, Д. Г. Зильпер, М. И. Филанович и др. Ташкент, Фан, 1973.
10. Бурнаков В.А. Путешествие в «Мир Мертвых»: мистерия Хакасского шамана Макара Томозакова // Проблемы истории, филологии, культуры, 2008, № 22, С. 607-616
11. Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент, 1975.
12. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент: Фан, 1982
13. Буряков Ю.Ф., Зильпер Д.Г. Археологические наблюдения в 1957 г. на городище Миигурюк в Ташкенте // Труды ТашГУ. Вып. 172. Ташкент, 1960, С. 128-146.
14. Войтов В.Е. Древнетюркский пантеон и модель мироздания в культово-поми-нальных памятниках Монголии VI–VIII вв. М.: Изд-во Государственного музея Востока, 1996
15. Жуковская Н.Л. Ламаизм и ранние формы религии. Москва, 1977
16. Зеленин Д.К. Культ онгонов в Сибири: пережитки тотемизма в идеологии сибирских народов (Труды Института антропологии, археологии и этнографии, том 14. Этнографическая серия, вып. 3). Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1936.
17. Зильпер Д.Г. Глава ИИ. Ташкент в древности и в средние века // Древний Ташкент / В. А. Булатова, Д. Г. Зильпер, М. И. Филанович и др. Ташкент, Фан, 1973,
18. Кисляков Н.А. Свадебные лицевые занавески горных таджиков // Сборник музея антропологии и этнографии. Том XV. Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1953, С. 291-316.
19. Кляшторный С.Г. Мифологические сюжеты в древнетюркских памятниках // Тюркологический сборник 1977. Москва, 1981, С. 117-138
20. Козинцев, А.Г. История одного бубна // Наука из первых рук, 3 (33), 2010, электронная версия <https://сфх.ру/паперс/история-одного-схаманского-бубна/>
21. Мендешева В.М. Образ Бай-Ульгёя и Аба-Эрлика в традиционном мировоззрении алтайцев // Северо-восточный гуманитарный вестник, 2012, № 1(4), С. 38-42
22. Наймарк А.И. Структура мироздания на стелле из Минг Урюка. -- Орта асрлар даври археологияси б'олими. Самарканд, 2023, п. 174-180
23. Ойноткинова Н.Р. Образное представление ада в шаманских текстах алтайцев // Вестник Томского государственного университета. 2018. № 437. С. 51–58
24. Плетнева С.А. Очерки хазарской археологии. Мосты культуры. Москва, 1999
25. Потапов Л. П. Умай - божество древних тюрков в свете этнографических данных // Тюркологический сборник 1972. Москва, 1973, С. 265-286.
26. Потапов Л. П. Шаманский бубен качинцев как уникальный предмет этнографических коллекций // Материальная культура и мифология (Сборник Музея Антропологии и Этнографии, т. XXXVIII). 1981, С. 124-137 Материальная культура и мифология (Сб. МАЭ. Т. xxxvii).
27. Потапов Л.П. Алтайский шаманизм. Ленинград: Наука, 1991
28. Руденко С.И. Древнейшие в мире художественные ковры и ткани из оледенелых курганов горного Алтая. Москва: «Искусство». 1968.
29. Гильом де Рубрук. Путешествие в Восточные страны. Перевод А.И.Малеина. Москва: Государственное издательство географической литературы, 1957 (доступно на интернете: https://www.гумер.инфо/библиотек_Букс/Хисторй/рубрук/01.пхп)
30. Сагалаев А.М. Алтай в зеркале мифа. Новосибирск : Наука, Сибирское отделение, 1992

31. Сагалаев и др. 1988 – Традиционное мировоззрение тюрков Южной Сибири. Пространство и время. Вещный мир. Новосибирск, 1988
32. Самашев З.С., Айткали А.К., Толегенов Е. “К вопросу о сакрализации образа кагана.” – Поволжская археология, № 2 (40) 2022, С. 21-34
33. Тадина, Н.А. «НЕТ ЖЕЛЕЗА, КОТОРОЕ НЕ СЛОМАЕТСЯ, НЕТ ЖИВОГО СУЩЕСТВА, КОТОРОЕ НЕ УМРЕТ» (представление о смерти в контексте картины мира алтайцев) // Сибирский сборник 1. Погребальный обряд народов Сибири и сопредельных территорий. Отв. ред.: Павлинская Л.Р. Санкт-Петербург: МАЭ РАН, 2009, С. 65-72
34. Филанович М. И. Ташкент. Зарождение и развитие города и городской культуры. Ташкент: Издательство «Фан» Узбекской ССР, 1983.
35. Филанович М. И. Древняя и средневековая история Ташкента в археологических источниках. Ташкент: «Фан», 2010.
36. Шкода В.Г. О культовых сценах в согдийской живописи. Сообщения Государственного Эрмитажа ХЛВ. Ленинград, 1980, С. 60-63
37. Яценко С.А., Смагулов Е.А. Знаки городищ Чача // Тамги Доисламской Центральной Азии, 2019, С. 198-228
38. Яценко и др. 2020 – Яценко С.А., Кулиш А.В., Смагулов Е.А., Торежанова Н.Ж. Раздел 6. Тамги Кангюя // Яценко С.А., Авизова А.К., Торгоев А.И., Саипов А., Кулиш А.В., Китов Е.П., Рогожинский А.Е., Смагулов Е.А., Ержигитова А. А., Торежанова Н.Ж., Тур С.С., Иванов С.С. Археология и история Кангюйского государства. Шымкент, 2020, С. 161-170
39. Basmachi, F. The votive vase from Warka. Sumer. 3. 1947. p. 118-27
40. Bayarsaikhan, Das'hdondog. S'hamans at the Court of the Qa'an // The Mongol World, yeds. Timothy May and Michael Hope, Routledge, 2022, p. 625-630
41. Belenizky A.M. Mittelasien, Kunst der Sogden. Leipzig: Seeman Verlag, 1980
42. Bira S'h. Mongolian Tenggerism and Modern Globalism. A Retrospective Outlook on Globalisation // Journal of the Royal Asiatic Society , Apr., 2004, Third Series, Vol. 14, No. 1 (Apr., 2004), pp. 3-12
43. Devlet Ye. Rock art and the material culture of Siberian and Central Asian s'hamanism // The Archaeology of S'hamanism, yed. by Neil S. Price. London & New York: Routledge, 2001, p. 43-54
44. Frankfort, H. A. The Art and Architecture of the Ancient Orient. Harmondsworth: Penguin Books, 1970.
45. Gasparini, Mariachiara. *Transcending Patterns: Silk Road Cultural and Artistic Interactions Through Central Asian Textile Images*. University of Hawai'i Press, 2019
46. Naymark A. Returning to Varakhs'ha // Silk Road Foundation Newsletter 1, no. 2 (December 2003) internet version: <http://www.silkroadfoundation.org/newsletter/december/varakhs'ha.htm>
47. Naymark A. Paintings in the Red Hall of Varakhs'ha palace and tiraz of Bakht-Tegin (s'hroud of St. Josse) // Presentation at the Art and Archaeology of the Silk Road conference. Portland State University, October 12, 2017 <https://drive.google.com/drive/folders/1HdeIQkvMfckJsVraeP3jkzx72XxgTbB>
48. Polosmak N.V. Nouvelles découvertes de tentures polychromes brodées du début de notre ère dans les tumuli No 20 yet No 31 de Noin-Ula (République de Mongolie), (traduit du russe par Henri-Paul Francfort yet Olga Tsepova) // Arts Asiatiques 2015, № 70, p. 3–32.
49. Roux, Jean-Paul. La Religion des Turcs yet des Mongols. Paris: Payot, 1984
50. Robinson, K.S. Carpets VI. Pre-Islamic carpets // Yencyclopaedia Iranica, Vol. IV, Fasc. 8, 1990. p. 858-861 (internet version: <https://www.iranicaonline.org/articles/carpetsvi>/<https://www.iranicaonline.org/articles/carpets-vi/>, last updated 2017)
51. Rozwadowski, Andrzej. Journeys to the Sun. Heavenly symbols in s'hamanism and rock art of Siberia and Central Asia. Poznan, 2004
52. Rozwadowski, Andrzej. Did shamans always play the drum? Tracking down prehistoric shamanism in Central Asia // Documenta Praehistorica XXXIX (2012), p. 277-286

53. Rubruck 1900 - The journey of William of Rubruck to the yeastern parts of the world, 1253-55, as narrated by himself, with two accounts of the yearlier journey of John of Pian de Carpine. tr. from the Latin and yed., with an introductory notice, by William Woodville Rockhill (London: Hakluyt/Society,1900)<https://depts.was'hington.yedu/silkroad/texts/rubruck.html#finalaudience>.
54. Spuhler, Friedrich. Pre-Islamic carpets and textiles from Eastern Lands. NewYork: Thames and Hudson, 2015
55. Stewart, Peter. The transmission of Greek and Roman imagery on Silk Roads textiles // Feng Zhao & Marie-Louise Nosch, yeds. Textiles and Clothing along the Silk Roads. Paris-Hangzhow 2022
56. Zhang He. Preliminary Study of the Carpets from Sampula, Khotan // Journal of Inner Asian Art and Archaeology 5 (2013), p. 59-94
57. Zhao Feng. Wall hanging with centaur and warrior // China: Dawn of a Golden Age, 200–750 A.D. Catalogue. New York: Metropolitan Museum of Art, 2004, pp. 194–195.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

AL-9224104729 “JADIDCHILIK TA’LIMOTI MILLIY STRATEGIK G‘OYALARINI OMMALASHTIRISHNING KONSTRUKTIV TRANSDITSIPLINAR MODELINI YARATISH” AMALIY LOYIHASI ASOSIDA TAYYORLANDI.

**ПОДГОТОВЛЕНО В РАМКАХ ПРИКЛАДНОГО ПРОЕКТА AL-9224104729
“СОЗДАНИЕ КОНСТРУКТИВНОЙ ТРАНСДИСЦИПЛИНАРНОЙ МОДЕЛИ
ПОПУЛЯРИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ИДЕЙ
ДЖАДИДИЗМА”.**

**PREPARED BASED ON THE APPLIED PROJECT AL-9224104729: “CREATING
A CONSTRUCTIVE TRANSDISCIPLINARY MODEL FOR POPULARIZING THE
NATIONAL STRATEGIC IDEAS OF JADIDISM”.**

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000